



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI TABIAT RESURSLARI VAZIRINING
BUYRUG‘I**

**Aholiga ma‘muriy jarimalarni to‘lashda qo‘shimcha
qulayliklar yaratish to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Aholiga ma‘muriy jarimalarni to‘lashda qo‘shimcha qulayliklar yaratish hamda sohada korrupsion omillarni bartaraf etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2023-yil 23-martdagi PQ-99-son qarori ijrosini ta‘minlash maqsadida,

BUYURAMAN:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 23-martdagi PQ-99-son qaroriga muvofiq, 2023-yil 1-maydan boshlab ma‘muriy huquqbuzarliklar bo‘yicha qo‘llanilgan jarimani ixtiyoriy to‘lash tizimi yanada soddalashtirilganligi inobatga olinsin.

Unga ko‘ra, huquqbuzarga jarima solish to‘g‘risidagi qaror topshirilgan kundan boshlab o‘n besh kun ichida jarima miqdorining 50 foizini, o‘ttiz kun ichida 70 foizini ixtiyoriy ravishda to‘lagan taqdirda, u belgilangan tartibda jarimaning qolgan qismini to‘lashdan ozod qilinishi inobatga olinsin.

2. Ekologik nazorat inspeksiyasi (Qurbonov) ushbu qaror tegishli bandlari bo‘yicha hududiy davlat inspektorlariga tushuntirish ishlari olib borilishini ta‘minlasin.

3. Devonxona mudiri (Yuldashev) mazkur buyruqni vazirlikning tegishli tarkibiy va hududiy bo‘linmalariga ijro uchun yetkazsin.

4. Mazkur buyruqning ijrosini nazorat qilish vazirning birinchi o‘rinbosari O.Qudratov zimmasiga yuklansin.

Vazir

A. Abduxakimov

2023-yil “28” - mart
45 - son



Isligga to‘g‘ri.
R. Yuldashev